

ALISHER NAVOIYNING HIKMATLAR XAZINASI: „MAHBUB UL-QULUB" ASARI TAHLILI

Hilola Rahmatova

Farg‘ona davlat universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Alisher Navoiyning „Mahbub ul-qulub" asarida bayon etilgan g‘oyalar, ayrim hikoyatlar tahlili bilan boyitilgan. Navoiyning „Mahbub ul-qulub" asarida odob-axloq g‘oyalari to‘g‘risida so‘z borar ekan, kishilarning ezgu sifatlari - saxiylik, mehribonlik, hilm, rostgo‘ylik, mehnatkashlik, kamtarlik, tavoze' singari qator fazilatlar ulug‘lanadi. Dangasalik, takabburlik, fisq-u fasod, yolg‘onchilik, firibgarlik, johillik, ochko‘zlikni Navoiy insoniylikka zid illatlar deb qaraydi. Asarda mutafakkirning uzoq yillar davomidagi hayotiy tajribasi, kuzatishlari asosida chiqargan xulosalarini original fikrlar orqali mulohaza qiladi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, „Mahbub ul-qulub" asari, hilm, saxovat, baxillik, saxiylik, axiylik, hilm, komillik, yoshlar tarbiyasi.

Annotation: This article is enriched with an analysis of the ideas and some stories expressed in Alisher Navoi's work "Mahbub ul-qulub". Navoi's work "Mahbub ul-qulub" discusses the ideas of morality, and a number of virtues such as generosity, kindness, gentleness, honesty, hard work, humility, and humility are glorified. Navoi considers laziness, arrogance, corruption, lying, fraud, ignorance, and greed as vices that are contrary to humanity. The work reflects the thinker's conclusions based on his many years of life experience and observations through original ideas.

Keywords: Alisher Navoi, "Mahbub ul-qulub", kindness, generosity, stinginess, generosity, benevolence, kindness, perfection, education of youth.

Alisher Navoiy — o‘zbek adabiyoti tarixida faqatgina shoir emas, balki butun bir ma’naviy olamning bunyodkori sifatida qadrlanadi. Uning ijodi Sharq mumtoz

adabiyotining eng yuksak cho‘qqilaridan biri bo‘lib, insonparvarlik, adolat, vatanparvarlik va ma‘rifatga da‘vat ruhi bilan sug‘orilgan. Navoiy asarlarida insonning ichki dunyosi, uning orzu-umidlari, ruhiy kechinmalari nihoyatda nozik tasvirlanadi. Shoir yaratgan har bir misra — qalb teranligi, fikr pokligi va badiiy tafakkurning buyukligidan darak beradigan durdona. Navoiy ijodi bugun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgan emas, albatta. Adabiyot, madaniyat, til va ma‘naviyat masalalarida uning fikrlari hanuzgacha yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi. Uning asarlari har bir avlodni komillikka chorlaydi, insonni o‘zligini anglashga undaydi. Bugungi murakkab, tez o‘zgarayotgan dunyoda Navoiy ijodi barqaror ma‘naviy tayanch, ko‘ngilni poklovchi manba, fikrni yuksaltiruvchi maktab sifatida qadrlanadi. Shoirning har bir dostonida, har bir ruboiysida yoki g‘azalida bugungi kun uchun ham muhim bo‘lgan hayotiy haqiqatlar mujassam: mehr-oqibat, halollik, sadoqat, olijanoblik, ilmu-ma‘rifatga rag‘bat. Navoiyning ana shunday boy ma‘naviy merosga ega bo‘lgan asarlaridan biri „Mahbub ul-qulub“ asaridir. Bu asar Alisher Navoiyning umri oxirida 1500-1501-yillar oralig‘ida yozilgan yirik nasriy manbadir. U muallifning g‘oyat mazmunli va sermashaqqat hayoti davomida to‘plagan boy tajribasi va xulosalarining yig‘indisidir. Navoiy bu asarni yaratishdan ko‘zlagan maqsadi haqida asar muqaddimasida shunday yozadi: „...bolalikdan to qarilikka qadar ko‘hna davron voqealaridan, aylanuvchi osmon hodisalaridan, fitna qo‘zg‘atuvchi dunyo buqalamunligidan – tovlama - chiligidan zamonaning rang singari gunogunligidan ko‘p vaqt va uzoq muddat har xil xayol va taraddudlar bilan daydib yurdim, har tavr va ravishda bo‘ldim va turli yo‘llarga kirdim, yaxshi-yomonning xizmatini qildim, katta-kichikning suhbatida bo‘ldim, goh xorlik va qiyinchilik vayronasida nola qildim, goho izzat va ma‘murlik bo‘stonida majlis qurdim... Yo‘qsillik va kambag‘allik paytlarimda falokatli zamonlarda va noumid yurgan kezlrimda ba‘zan ilm-fan madrasalarida quyi saflardan joy oldim va olimlar majlisida ilm nuridan ko‘nglimni yoritdim... davlat ishi bilan mashg‘ul bo‘lgan amaldorlik chog‘larimda ko‘ngil mulkini turli odamlarning hujumi bulg‘aladi. Zamon ahlidan ba‘zi hamsuhbatlarim va davron kishilaridan ayrim do‘stlarim bu hollardan xabarsiz hamda

ko`ngillari bu yaxshilik va yomonliklardan asarsizdir... Shu jihatdan, hamsuhbatlarni va do`st-yoronlarni bu hollarda ogoh va xabador qilmoq vojib ko`rindiki, toki ularda ham har toifaning hislati haqid tushunchalari bo`lg`ay...". Ko`rinadiki, Navoiy bu asarida ham inson haqida qayg`uradi. Uning dardini chekadi, inson iylikka yarashikli fazilatlarni madh etadi, unga zid bo`lgan illatlarni qoralaydi. Binobarin, insonparvarlik, xalqparvarlik bu asarning bosh g`oyasini belgilaydi.

Asar o`zaro bog`liq 3 qismdan iborat. 1-qism 40 fasl (bob) ni o`z ichiga oladi. Bunda muallif o`z davrining tipik vakillari hayotini tasvirlagan. 10 bobdan tashkil topgan 2-qismda yaxshi va yomon, maqtovga sazovor va nafratga loyiq hislatlar tafsiloti berilgan. 3-qismga masal va hikmatlar kiritilgan. Har bir jumla o`zaro qofiyadosh. Asarning sajda yozilishi unga alohida badiiy nafosat bag`ishlagan. Asarga baytlar, ruboiylar kiritilib, ular ulug` shoir va mutafakkirning hayot haqidagi xulosalarini mujassamlashtirgan.

„Mahbub ul-qulub“ - „Qalblarga sevimli bo`lgan kitob“ ma`nosini bildiradi. Uni „Dillarga oshno asar“ yoki „Qalblarga yaqin kitob“ deb tarjima qilish ham mumkin. Asar o`zaro uch qismdan iborat:

Birinchi qism: turli odamlarning fe`l-atvori va ahvoli haqida;

Ikkinchi qism: yaxshi fe`llar hosiyati va yomon fe`llar kasofati haqida;

Uchinchi qism: turli foydali narsalar va turli misollar (hikmatlar) haqida.

Birinchi qism 40 fasldan iborat bo`lib, jamiyatni tashkil qiluvchi tabaqa vatoifalar haqida batafsil yoritib beradi. Bu o`quvchida jamiyat haqida yaxlit tasavvur uyg`otishga yordam beradi. Birinchi qismda tijorat ahli, munajjimlar, dehqonlar, hofizlar, shoirlar, faqihlardan tortib vazir-u podshohgacha har birining aslida qanday fazilatlarga ega bo`lishlari talab etilishi va o`sha davrda ularning tabiatlarida zohir bo`layotgan illatlar tilga olinadi. Misol qilib:

Bayt:

Hoziq tabibi xushgo`y tan ranjig`a shifodur,

Omiy-u tund-u badxo`y el jonig`a balodur.

Sharx: shirin soʻz tabib tan dardiga davodir, omi-yu qoʻpol va badfeʼl tabib,el joniga balodir.

Ushbu baytda tabiblar Iso paygʻambarga oʻxshatiladi. Iso chiqqan jonni duo bilan inson tanasiga qaytargan boʻlsa, tabiblar chiqayotgan jonga davo bilan tanani tark etishga monelik qiladi, deyiladi. Tabib oʻz fanida nihoyatda mohir, kasbiga sadoqatli, bemorga marhamatli va shafqatli boʻlishi lozim. Bunday tabibning yuzi bemorga mahbub, soʻzi bemor joniga margʻubdir. Ammo oʻz kasbini yaxshi egallamagan, yomon feʼlli, beparvo va dagʻal muomalali boʻlsa, bemorni bir tomondan davolagan boʻlsa, boshqa tarafdin koʻnglini jarohatlaydi. Agar tabib oʻqimishli, ilmi boʻlmasa, u jallod shogirtidir. Jallod tigʻ bilan oʻldirsa, u davo oʻrniga zaharlaydi.

Jamiyatning faol aʼzolariga aylanib borayotgan yoshlar oʻziga xos oʻrin egallashlari uchun qanday hislatlarga ega bolmogʻligi kerak? Ushbu kishilik jamiyatida ezgulik va toʻliq saodat hukm surishi uchun jamiyat aʼzolari qanday tamoyillarga asoslanishlari haqida ushbu asarning ikkinchi qismida 10 ta bob doirasida tahsinga sazovor feʼl-atvor, yuksak xulqqa erishish tamoyillari orqali ochib beradi. Bular tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, sabr, tavoze va adab, zikr, rizo,tavajjuhva ishqdir. Mana shu fazilatlar inson qalbini tugʻyon va isyondan saqlaydi,unga huzur va halovat baxsh etadi, xulqini goʻzal qiladi, bardoshini oshiradi.Irodasining baquvvat boʻlishiga yordam beradi.

Masalan, zuhdga bagʻishlangan bobiga nazar tashlaylik.

Zuhd - arab tilida “beeʼtiborlik”, “moddiy manfaatga befarq boʻlish” – tarkidunyochilik, Xudoning marhamatiga musharraf boʻlish, jannatga tushish uchuntarkidunyo qilish.³Navoiy esa zuhdni shunday tushintiradi:

Zuhd – boʻlar-boʻlmas orzulardan kechmoq, molu mansab ketidanquvmaslik, nomahram yuzdan koʻzni asrashlik va yomon soʻzlardan tilni tiymoqlik.

Kimki bu maqomni qoʻlga kiritsa, uning koʻnglida bir nur paydo boʻladi vakoʻnglini hamisha shod etadi.

Navoiy har bir inson qalban zohid boʻlishini, zuhd maqomini egallashiniorzu qiladi. Bunday zuhd insonning koʻngil halovati, qalb osudaligini taʼminlaydi.

“Mahbub ul-qulub”ning uchinchi qismida Navoiy to‘g‘ridan-to‘g‘rio‘quvchiga murojat etadi va turli tanbeh, pand-nasihatlar vositasida ularga ma‘naviy kamolot sirlarini o‘rgatadi.

Misol qilib, 63-tanbex “Shukr va uzr boisi” to‘g‘risida:

Masnaviy:

Har zuhdki, ujub anga erur zam,
Ko‘nglim haramig‘a qilma mahram.
Har fisqki, uzur anga berur yor,
Ul yon meni moyil ayla zinxor.

Sharxi:

Har zuhdu taqvo o‘zga bino qo‘yishga ollib kelsa,
Ko‘nglim uyiga uni yaqinlashtirma.
Har gunohki tavba unga yor bo‘lsa,
Meni shu tomonga, albatta, moyil qil.

Ushbu tanbehda Navoiy nadomat qilmaydigan fosiq – shum, nadomat qilmaydigan saodat ahli yonida mazlum (ya‘ni nafs tufayli o‘ziga o‘zi zulm qilgan).Taqvoyu, fisq elga Xudoning taqdiridir, ammo ikkalasini birdek ko‘rmoqnodonlikdir.

Taqvodor bo‘lsa hamma narsaga shukr qiluvchi, isyonkor bo‘lmasligi kerak,uzr so‘rashni ham bilishi kerak. Tavfiqqa erishganlarning nadomat belgisi shudir deb aytiladi.

Gunoh qilib pushaymon bo‘lish, tavfiqning nishonasi, zuhd-u taqvo qilib,shunga mag‘rurlansa, bu shaytonning afsonasi deb sharxlaydi.

Xulosa qilib, hazrat Navoiy nafaqat ulug‘ mutaffakir, ulug‘ shoir, balki o‘z xalqi, millati taqdiriga befarq bo‘lmagan buyuk murabbiy ham edi. U o‘z umri intihosida ham millat va xalq dardi bilan yashadi. “Mahbub ul-qulub” asarida jamiyat bilan bog‘liq orzu-umidlarini ifodalaydi. Unga jamiyat hayotini yuksaltirish, uni to‘g‘ri yo‘lga solish

va shaxs ma'naviyatini tarbiyalash kabi o'zining so'nggi armonlarini vasiyat qilib qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алишер Навоий , Махбуб ул-кулуб . – Toshkent : Yangi asr avlodi, 2019
2. „Alisher Navoiyning hayoti va ijodi bo'yicha qo'llanma” T. Matyoqubova, Toshkent – 2009.
3. S. G`aniyevaning „ Mahbub ul-qulub” asari haqidagi qarashlari
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug`ati. 4tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1983. 642bet